

Yangi O'zbekiston yoshlari erkin va farovon yashaydi



Yangi O'zbekiston yoshlari erkin va farovon yashaydi

Termiz shahridagi "Amudaryo" xalqaro bolalar oromgohida "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" g'oyasi asosida yoshlar festivali bo'lib o'tdi.

Bayramona ruhda o'tgan tadbirning tantanali ochilish marosimida Surxondaryo viloyati hokimining turizm, sport, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinbosari Jo'rabek To'raev, O'zbekiston xalq artisti Muhammadali Abduqunduzov, shoir Bobur Bobomurod va boshqalar so'zga chiqib mamlakatimizda so'nggi yillarda yuz berayotgan o'zgarish va yangilanishlar inson manfaatlarini va xalqimiz, ayniqsa yosh avlod farovonligi uchun xizmat qilayotganini ta'kidladi. Festival ishtirokchilarini o'ziga xos shodiyonaga aylangan tadbir bilan tabrikladi.

Tadbir doirasida yoshlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, amaliy va tasviriy san'at asarlari, kitoblar ko'rgazmalari tashkil etildi. Yigit-qizlar o'rtasida sportning voleybol, mini futbol, shaxmat-shashka, arqon tortish, tosh ko'tarish, armrestling, suzish kabi o'nta turi bo'yicha bellashuvlar uyushtirilib, g'oliblar munosib rag'batlantirildi.

Termiz shahridan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan 140 ga yaqin yigit-qizga zamonaviy tikuv mashinalari, kompyuter jihozlari, turli asbob-uskuna va ish qurollari sovg’a qilinib, ularning doimiy daromad manbaini shakllantirishga ko’maklashildi. Zamonaviy harbiy texnika va qurol-aslahalar ko’rgazmasi ham tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg’otdi.

Festival poytaxtdan kelgan hamda mahalliy san’atkorlarning, el suygan baxshilarning gala kontserti bilan yakunlandi.

Mustaqilligimizning 30 yilligiga bag’ishlangan ushbu tadbir viloyat tumanlarida ham yuksak saviyada o’tkazilmoqda.